

O`Z-O`ZINI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdusaidova Munisa Sunnat qizi

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo ‘rg‘on filiali
Ijtimoiy ish ta’lim yo ‘nalishi talabasi;*

e-mail: abdusaidovamunisa@gmail.com

Mamasaidova Durdona Quvvatovna

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo ‘rg‘on filiali
Ijtimoiy ish ta’lim yo ‘nalishi talabasi;*

e-mail: durdonaquvvatovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirda O`zbekiston Respublikasida aholining farovonligini yaxshilash uchun qilinayotgan ishlar, o`zini-o`zi boshqarish organlari faoliyati haqida ma`lumotlar va mahalla yettiligi haqida ham ma`lumotlar keltirib o`tilgan. Mahalla yettiligining asosiy vazifalarini ham qisqacha keltirib o`tilgan. Yana boshqa o`z-o`zini boshqarish organlarini faoliyatini takomillashtirish bo`yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar keltirib o`tilgan.

Kalit so`zlar: Fuqarolar, o`zini-o`zi boshqarish organlari, faoliyat, takomillashtirish, ijtimoiy xodim, mahalla raisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, pirofilaktika inspektori, hokim yordamchisi.

Abstract: In this article, the work being done to improve the well-being of the population in the Republic of Uzbekistan, information about the activities of self-governing bodies, and information about the seven neighborhoods are also given. The main tasks of seven neighborhoods are also briefly mentioned. The measures taken to improve the activities of other self-governing bodies were mentioned.

Key words: *Citizens, self-governing bodies, activity, improvement, social worker, neighborhood chairman, women's activist, youth leader, pyrophylaxis inspector, deputy mayor.*

Аннотация: В данной статье также приведены сведения о проводимой работе по улучшению благосостояния населения в Республике Узбекистан, сведения о деятельности органов самоуправления, а также сведения о семи микрорайонах. Также кратко упомянуты основные задачи семи кварталов. Были упомянуты меры, принимаемые по совершенствованию деятельности других органов самоуправления.

Ключевые слова: *Граждане, органы самоуправления, деятельность, благоустройство, социальный работник, председатель района, женский активист, молодежный лидер, инспектор по пиропрофилактике, заместитель мэра.*

KIRISH

O’z-o’zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o’rni. Inson haq-huquqlarini ta’minlash va himoya qilish. Ushbu qonunga ko’ra, Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari quyidagilardir: shaharcha, qishloq, ovul fuqarolarining , shuningdek, shahar, shaharcha, qishloq va ovuldagagi mahalla fuqarolarining yig’ini; fuqarolar yig’inining kengashi; fuqarolar yig’ini faoliyatining asosiy io’nalishlari bo’yicha komissiyalar; fuqarolar yig’inining taftish komissiyasi; tuman markazidan olisda joylashgan va borish qiyin bo’lgan shaharchalar, qishloklar va ovullarda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda tuziladigan ma’muriy komissiya. Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari. mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi. Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari. yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, namunadagi muhrga ega bo’ladi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida ro’yxatga olinishi kerak. O’zbekistonda 10 mingdan ortiq Fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari faoliyat

ko'rsatmoqda. Fuqarolar yig'ini organlarini va ularning mansabdar shaxslarini saylash fuqarolarning qonunda belgilangan saylov huquqlari kafolatlarini ta'minlagan hodata, umumiy, teng va to'g'ridanto'g'ri saylov huquqi asosida yashirin yoki ochiq ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi. «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida» qonun qabul qilingan Fuqarolar yig'ini — fuqarolar o'zini o'zi boshqarishining yuqori organi bo'lib, aholi manfaatlarini ifodalash va uning nomidan tegishli hududda amal qiluvchi qarorlar qabul qilish huquqiga ega. Fuqarolar yig'inida 18 yoshga to'lgan hamda shaharcha, qishloq, ovul va mahalla hududida doimiy yashayotgan shaxslar qatnashadi. «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonunda shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'inining vakolatlari ko'rsatilgan. Fuqarolar yig'inining qarorlarini bajarish va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining fuqarolar yig'nlari oraliq davridagi joriy faoliyatini amalga oshirish uchun fuqarolar yig'inining raisi (oqsoqoli), uning maslahatchilari, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarning raislari va yig'inining mas'ul kotibidan iborat tarkibda fuqarolar yig'inining kengashi tuziladi.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (105-modda) va "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida" (yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasining qonuni (1999 yil 14 aprel)da Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari huquqiy holati ko'rsatib o'tilgan.¹ Ushbu qonunga ko'ra, Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari quyidagilardir: shaharcha, qishloq, ovul fuqarolarining , shuningdek, shahar, shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolarining yig'ini; fuqarolar yig'inining kengashi; fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar; fuqarolar yig'inining taftish komissiyasi; tuman markazidan olisda joylashgan va borish qiyin bo'lган shaharchalar, qishloqlar va ovullarda qonun hujjatlarida

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.2023

nazarda tutilgan hollarda tuziladigan ma'muriy komissiya. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, namunadagi muhrga ega bo'ladi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida ro'yxatga olinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida xozirgi kunda O'zini-o'zini boshqarish organlarini faoliyatini takomillashtirish borasida juda ko`p chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 18-fevraldagagi PF-5938-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida pirizident farmoni ishlab chiqildi. Aynan unda Fuqorolar yig`ini faoliyatini tashkil etishda qo'shimcha chora tadbirlar,fuqarolarning barcha huqularini himoyasi bo'yicha bantlar ishlab chiqildi.

Fuqarolar yig'inlari faoliyatini tashkil etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish maqsadida barcha fuqarolar yig'inlari geografik joylashuvi va aholi soni bo'yicha toifalarga ajratiladi.

Fuqarolar yig'inlari geografik joylashuvi bo'yicha quyidagi toifalarga bo'linadi: shaharda; tuman markazida; tuman markazigacha 30 km bo'lgan masofada; uman markazidan 30 km va undan olis masofada, tog'li va cho'l hududida; chegara (yoki anklav) hududda joylashgan fuqarolar yig'inlari.

Fuqarolar yig'inlari aholi soni bo'yicha quyidagi toifalarga bo'linadi:

1000 nafargacha aholisi bo'lgan;

1001 — 2000 nafargacha aholisi bo'lgan;

2001 — 4000 nafargacha aholisi bo'lgan;

4001 — 6000 nafargacha aholisi bo'lgan;

6001 — 8000 nafargacha aholisi bo'lgan;

8000 nafardan ziyod aholisi bo‘lgan fuqarolar yig‘inlari.²

Fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, bevosita yoki o‘zlarining saylanadigan vakillari orqali o‘zini o‘zi boshqarishda teng huquqlarga ega.³

Hozirda mahallalarni yanada rivojlantirish va fuqorolarning hayotini yaxshilash maqsadida mahallalarda o`zgartirishlar olib borilmoqda. Aynan o`zgarishlardan biri bo`lgan mahalla yettiligi tashkil etilishi ham fuqorolarni har tomonlama qo`lab- quvatlash uchun imkoniyatdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–209-sun Farmoni bilan “mahalla yettiligi” (avvalgi “beshlik”) har bir a’zosining vazifalari belgilab berildi.⁴

“Yettilik” tarkibiga quyidagilar kiradi:

- mahalla raisi;
- hokim yordamchisi;
- yoshlar yetakchisi;
- xotin-qizlar faoli;
- profilaktika inspektori;
- ijtimoiy xodim;
- soliq inspektori.

Mahalla raisining vazifasi.

Mahalla obodligini ta’minalash, shu jumladan, “Obod mahalla”, “Obod ko‘cha”, “Obod xonodon” mezonlarini joriy etishda aholining faol ishtiroki va mas’uliyatini oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida daraxt va buta ko‘chatlari ekish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini amalga oshirish.

² Fuqarolar yig‘ini to‘g‘risida
NAMUNAVIY NIZOM1-bob. Umumiyl qoidalar

³ Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-iyundagi 380-sun qarori 4-modda

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–209-sun qarori.

Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni targ'ib qilish, sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni saqlash, to'y-marosimlarni isrofgarchiliklarsiz ixcham o'tkazilishini ta'minlash. Mahallaga biriktirilgan davlat organlari vakillarini aholi muammolarini hal etishga safarbar etish va muammolarga yechim topishini ta'minlash.

Hokim yordamchisining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

Doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan ishsiz aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda bandligini ta'minlash choralarini ko'rish. Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida kredit va subsidiyalar ajratilishida ko'maklashish.

Yoshlar yetakchisi vazifalari.

Asosan maxalladagi yoshlar bilan ishslash, ularni bo'sh vaqtini samarali o'tkazish,yoshlarni bantligini ta'minlash va ularga ish topishda yordam ko'rsatish, nogironligi bor, qarovsiz qolgan, ijtimoiy ahvoli yomon yoshlar bilan alohida ishlar olib borishdan iborat.

Xotin-qizlar faolining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

"Sog'lom oila — sog'lom jamiyat" tamoyillarini targ'ib qilish, xususan yaqin qarindoshlar o'rtasidagi va erta nikohning oldini olish, reproduktiv salomatlikni yaxshilash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish; Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashish; Xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, ushbu muammolar yuzasidan davlat organlari va tashkilotlarga murojaat qilish, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatishni ijtimoiy xodim bilan birgalikda tashkil etish.

Profilaktika inspektorining asosiy vazifalari.

ichki ishlar organlari profilaktik hisobida turgan shaxslar, shu jumladan voyaga yetmaganlar hamda yoshlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirishda faol ishtirok etadilar.

ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasida aholi, ayniqsa, voyaga yetmaganlar hamda yoshlar o'rtasida profilaktik targ'ibot tadbirlarini o'tkazadilar.

mehnat intizomiga rioya qilganligi va qonunbuzilishi holatlariga yo'1 qo'yaganligi;

biriktirilgan hududda huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga chek qo'yish chora-tadbirlari o'z vaqtida ko'rilganligi natijasida jinoyatlar va ijtimoiy-maishiy tusdagi huquqbuzarliklar sodir etilishi darajasining pasaytirish.

Nizoliy oilalar bilan ishslash. Mahalla aholisining huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida ishlar amalga oshirish va boshqa vazifalar profilaktika inspektorining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Soliq inspektori.

soliq to'lovchilarni va soliq solish obyektlari o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, ularning to'liq qamrab olinish mexanizmlarini soliq ma'muriyatichiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish orqali takomillashtirish, hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali ta'sirchan choralar ishlab chiqish, pul mablag'larining g'ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to'liq va o'z vaqtida topshirilishi ustidan muntazam nazoratni ta'minlash, soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko'maklashish va boshqa vazifalardan iborat.

Ijtimoiy xodimning asosiy vazifalari.

Aholining ijtimoiy xizmat va yordamlar, shuningdek, ijtimoiy ish faoliyati haqida xabardorligini oshirish; ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatishni tashkil qilish; ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga zarur hollarda qisqa muddatli individual ijtimoiy yordam rejasini tuzish; aholiga davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmat va yordamlar

to‘g‘risida, shuningdek, aholining mazkur xizmatlarni olishga bo‘lgan huquqlari bo‘yicha tushuntirish berish; ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, xotin-qizlar faoli, yoshlар yetakchisi va boshqalar bilan hamkorlikda muammolarni yechish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rish; ichki resurslarni, shu jumladan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘ngillilarni (qarindoshlar, qo‘ni-qo‘snilar, volontyorlar) ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatishga jalb qilish hamda bu borada ularning faoliyatini muvofiqlashtirish; oilalardagi haqiqiy holatni o‘rganish, jumladan aholining ijtimoiy himoyaga bo‘lgan ehtiyojini baholash.

Aynan mahalla yettiligini vazifalari shulardan iborat.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki Yangi O`zbekistonda aholining farovonligini yaxshilash maqsadida juda ko`p chora- tadbirlar amalgalashmoqda. Bulardan har bir O`z-o`zini boshqarish organlarni alohida rivojlantish va aholiga yanada yaxshi va sifatli xizmatlar ko`rsatish borasida ishlar amalgalashmoqda. Yana biz boshqa mamlakat tajribalaridan ham foydalanmoqdamiz. Qilinayotgan bu ishlar o`z samarasini ko`rsatib kelmoqda, misol uchun yoshlарimizning bilimga bolgan e`tibori kuchaymoqda, yana boshqa mamlakat yoshlari bilan bemalol raqobatlashishmoqdalar. Yana aholida huquqiy, diniy, dunyoviy bilimlarning ortib borayotganligiga guvox bo`lmoqdamiz.

Mahalla atamasi arabcha bo‘lib, „o‘rin-joy“ degan ma’noni anglatadi. U turli mintaqalarda mahallot (joy), guzar, jamoa, elat, elod nomlarda atalib kelingan., Narshaxiy o‘zining „Buxoro tarixi“ asarida Buxoroda bundan 1100-yil ilgari bir qancha mahallalar bo‘lganini qayd etib o‘tgani. Alisher Navoiy o‘zining „Hayrat ul-abror“ asarida mahallani „mahalla shahar ichidagi shaharcha“dir deb ta’riflaydi, Mahallalar, ayniqsa, Amir Temur davrida ravnaq topgan. Bu davrda mahallalar fuqarolarning kasbkori asosida shakllangan va shunga qarab nomlangan. Masalan, zargarlik, misgarlik, ko‘nchilik,

pichoqchilik, qoshiqchilik, temirchi, egarchi, taqachi va h.k. mana shu bugungacha yana aynan mahallalarga e`tabor bergen holda mamlakatni rivojlanish bosqichini yanada oshirish uchun harakat qilishmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.2023
2. Fuqarolar yig`ini to`g`risida
NAMUNAVIY NIZOM 1-bob.
3. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-iyundagi 380-som qarori 4-modda
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–209-som qarori.
5. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 26.03.2019 yildagi 251-som
6. O`zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.08.1997 yildagi 474-I-som